

"IKKI ESHIK ORASI" ASARIDA TASVIRLANGAN AYOL MATONATI. "QORA AMMA" VA "ROBIYA" TIMSOLIDA

Yoqubjonova Madinabonu Azimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

filologiya tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida ayol matonati, sabr-bardoshi va ijtimoiy munosabatlar olamida shakllangan ma'naviy kuch "Qora amma" hamda "Robiya" obrazlari misolida tahlil etiladi. Asarda ushbu ikki obrazning turmushdagi sinovlarga bo'lgan munosabati, ularning oila, jamiyat va muhabbat oldidagi mas'uliyati yoritilib, ayollar jasorati va ruhiy bardoshi badiiy talqinda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ayol matonati, o'zbek ayoli, Qora amma timsoli, Robiya timsoli, onalik mehri.

O'tkir Hoshimov 1941- yilning 5-avgustida Toshkent viloyatining Zangiota tumani Do'mbirobod mavzeida tavallud topdi. Bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshladi. 1962- yilda uning "Po'lat chavandozlar" ocherklar to'plami bosilib chiqdi. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarning qo'lga borib tegdi. Uning ilk qissasi "Cho'l havosi" (1964) adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi. Yozuvchining "Ikki eshik orasi" romani ham kitobxonlarning sevimli asarlaridan biri bo'ldi. Asar 1986- yilning eng yaxshi asarlaridan biri bo'ldi, va Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgandi.

Asarda ikkinchi jahon urushida bo'lib o'tgan voqealar, o'sha davr insonlarining fidokorliklari, matonati ochib berilgan.

"Ikki eshik orasi" deganda, inson umrini, ya'ni tug'ilgandan vafot etguncha bosib o'tgan yo'lni ko'zda tutadi. Muallifning g'oyaviy falsafasiga ko'ra bu yo'l juda murakkab va ziddiyatli bo'lib, uni muvaffaqiyat bilan bosib o'tishi uchun insondan katta matonat, iroda, bilim va jasorat talab qilinadi. Asardagi Oqsoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan jasoratli, matonatli, boy kishilar bo'lib bu obrazlar orqali yozuvchining g'oyaviy maqsadini ta'sirchang ifodalashga hizmat qilgan. Asardagi "Qora amma" va "Robiya" obrazlari orqali haqiqiy o'zbek ayolining sabri, matonati, onalik mehri, fidokorlik tuyg'ulari juda g'ozal tasvirlanadi.

Robiya obrazi kitobxon xayolida sochlari uzun, mehnatsevar, samimiy haqiqiy o'zbek ayoli gavdalanadi. Robiyaga taqdir kulib boqmaydi. Robiya onadan erta yetim qolgani yetmaganday u otasidan ham juda erta ayriladi. Birga katta bo'lgan va sevib qolgan insoni Kimsandan urush tufayli ajraladi va yolg'iz qoladi. Ona deb bilgan Qora ammaning taklifiga ham rozi bo'ladi ya'ni "tog'a" deb bilgan insoniga, Shomurodning kichik farzandi Muzaffarga onalik qilish uchun turmushga chiqadi. Muzaffarning o'z onasi Ra'no hiyonati va qochib ketishi tufayli ruhan sinib qolgan, yosh bolaning ko'ngliga Robiya chirog' yoqadi. Unga o'z onalik mehrini beradi, o'zining bolasiday katta qiladi. U o'z sevganidan kechmaydi, uning hayolida Kimsan tirikligi bir kun, albatta, kelishiga ishonadi.

Qora amma obrazi sodda, mehribon, jafokash bir ona timsolida gavdalanadi. Bu obraz orqali o'zining yakka-yu yagona o'g'li Kimsanni ajalning uyasi bo'lgan urushga yuborishi, unga qo'yilgan ayblar va tuhmatlarga, vafot etganiga ishonmay umrining ohirigacha o'g'lini ko'zlari to'rt bo'lib kutgan mushtipar ona tasvirini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. U boshig tushgan ishlarga, qiyinchiliklarga sabr bilan, o'ziga kuch topib yashaydi. "Qora amma" obrazi yosh Muzaffar tilidan shunday tasvirlanadi: "Qora ammam xuddi koptokka o'xshaydi. Kichkina, dum dumaloq. Tag'in yozdayam qora nimcha kiyib yuradi".

Asardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Qora amma va Robiyaning xarakteri, ularning boshidan kechirgan sinovlari va hayotiy qarorlari ayol matonati orqali yozuvchi ko'zlagan g'oyasining badiiy markazini tashkil qiladi. Shu tariqa, asosiy qismda ko'rib chiqilgan dalillar ushbu mavzuning romandagi ahamiyatini va badiiy qiymatini yanada oydinlashtiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, urush orqali kelgan ayriliq, qiyinchiliklarga ko'nib, boshiga nimayki holat kelsa sabr bilan yengib o'tgan o'zbek ayoli tasviri ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021-22 b